

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSs.02/30.12.2019.Fil.46.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOLBUTAYEV G‘AYRATBEK OYBEK O‘G‘LI**

**ASKIYA POETIKASI**

**10.00.08 – Folklorshunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)**

<b>Xolbutayev G‘ayratbek Oybek o‘g‘li</b> Askiya poetikasi.....	3
<b>Холбутаев Гайратбек Ойбек угли</b> Поэтика аскии .....	23
<b>Kholbutaev Gayratbek</b> Poetics of Askia.....	44
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	48

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSs.02/30.12.2019.Fil.46.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOLBUTAYEV G‘AYRATBEK OYBEK O‘G‘LI**

**ASKIYA POETIKASI**

**10.00.08 – Folklorshunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Fil1191 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tai.uz](http://www.tai.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Mirzayeva Salimaxon Raimjonovna</b> filologiya fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Qayumov Olimjon Sadriddinovich</b> filologiya fanlari doktori, dotsent <b>Rasulova Zebiniso Jaloliddinovna</b> filologiya fanlari nomzodi
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.02/30.12.2019.Fil.46.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (99871) 233-36-50; faks: (99871) 233-71-44; e-mail: [uztafi@academy.uz](mailto:uztafi@academy.uz))

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**J.Eshonqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, filol. f.d., prof.

**B.Mirzayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.f.d.

**Sh.Turdimov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filol. f.d.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi zamon jahon folklorshunosligida xalq ogʻzaki ijodi asarlarining verbal matn sifatidagi mohiyatini funksional-semantik jihatdan tahlil qilish orqali soʻz sanʼatining noyob durdonalarini aniqlash, ularning badiiy-estetik jihatlarini oydinlashtirish hamda maʼnaviy qadriyatlar tizimining shakllanishida tutgan oʻrnini aniqlashga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Ogʻzaki ijod namunalarida kulgi bilan bogʻliq asarlarni oʻrganish, ularning badiiy-estetik imkoniyatlari borasida mulohazalar bildirish, komik matnning tinglovchi ruhiyatiga taʼsiri dolzarbligicha qolmoqda.

Dunyo folklorshunosligida mustaqil janr boʻlgan oʻzbek askiyasining xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan noyob obyektlar roʻyxatiga kiritilishi, oʻzbek askiyasining janr tabiati, tasnifi, badiiy estetik mohiyatini folklorshunoslikning yangi zamonaviy konsepsiyalari asosida oʻrganish hamda monografik tadqiq etish folklorshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Askiya janridagi milliy ruh ifodasi, folklor janrlarining hayotiy-maishiy funksiyalari, askiyaning badiiy-estetik vazifadorlik koʻlami taraqqiy topishidagi oʻrnini belgilab koʻrsatish zarur. Bu esa mazkur dissertatsiya mavzusining nechogʻli dolzarbligini belgilab beradi.

Mustaqillik yillarida oʻzbek xalqining turmush tarzi, boy tarixi va madaniyati, ular mazmunidan kelib chiqadigan didaktik xulosalar, xalqona pand-nasihatlarini oʻzida ixcham badiiy aks ettirgan askiyalarning soʻz sanʼati taraqqiyoti va yosh avlod tarbiyasidagi oʻrnini oʻrganishga eʼtibor oshirildi. “Iqtisodiyot bilan birga madaniyatni rivojlantirishga ham harakat qilayapmiz. Fargʻona azaldan sanʼatkorlar vatani boʻlib kelgan. Qoʻqon teatri taʼmirlanib, zamonaviy sharoitlar yaratilgani, ulugʻ adib va sanʼatkorlar xotirasiga bagʻishlab muzey va maktablar tashkil etilgani xayrli boʻldi. Bugun saylovchilar bilan uchrashuvda Zokirjon Xolmuhammad oʻgʻli Furqat, Ashurali Zohiriy, Yusufjon qiziq Shakarjonov nomini abadiylashtirish, Sanʼatkorlar xiyobonini barpo etish, umuman, viloyatda madaniyatni rivojlantirish boʻyicha koʻplab fikrlar bildirdim. Agar sizlar qoʻllab-quvvatlab, oʻz hissangizni qoʻshsangiz, bu sanʼat rivojiga, yoshlar tarbiyasiga xizmat qiladi, deb oʻylayman”<sup>1</sup>. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodidagi soʻz sanʼati bilan aloqador folklor asarlarini oʻzlikni ifoda qilishning ogʻzaki shakllaridan biri sifatida har tomonlama chuqur oʻrganib, bu badiiy matnlar xalqimizning ijtimoiy, siyosiy, badiiy-estetik qarashlari bilan bevosita bogʻliq holda shakllanganligini yaxlit holda kuzatish imkonini beradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fargʻona viloyatiga tashrifi chogʻidagi nutqi / <https://president.uz/oz/lists/view/4653>

moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-son “Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 14-maydagi 4320-son “Baxshichilik san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi” qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-apreldagi 304-son “Baxshichilik va dostonchilik san‘atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2010-yil 7-oktyabrdagi VMQ №222-son “2010-2020-yillarda Nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Askiya o‘zbek folklorining mustaqil janri sifatida XX asrning boshlarida dastlab etnograflar tomonidan o‘rganila boshladi. Bu borada A.L.Troiskyaning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>. Olima o‘zining o‘zbeklar haqidagi kuzatishlari va dala yozuvlari asosida askiyaning xalq orasida qadimdan qiziqchilar tomonidan ijro etilishi, uning ba’zi turlari borasida o‘z mulohazalarini bayon qiladi. Jumladan, tutol askiya shaklining yo‘qolib ketgan ko‘rinishi borasida mulohazalarini bildiradi. XX asr o‘rtalarida atoqli folklorshunos Hodi Zarifov rahbarligida R.Muhamadiyev o‘zining nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan<sup>2</sup>. Askiya R.Muhamadiyev tomonidan qo‘lga kiritilgan nazariy xulosalar asosida o‘zbek folklorining mustaqil janri sifatida Oliy ta‘lim muassasalari darsliklaridan o‘rin oldi<sup>3</sup>. Yangi asrga kelib o‘zbek folklorining kulgiga asoslangan askiya janri o‘zbek tilshunosligida lisoniy jihatdan tadqiq etildi<sup>4</sup>. Biroq xalq ijodida kulgi muammosiga bag‘ishlab jahon ilm-fanida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan<sup>5</sup>. Xorijlik tadqiqotlar kulgining psixologik

<sup>1</sup> Троицкая А.Л. Народный театр в Узбекистане // Восточный сборник. Вып. 4. – Л., 1990. – С. 144-151.

<sup>2</sup> Мухамдиев Р. Аския (Ўзбек халқ ижодиётининг жанри): Филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 1961. – 233 б.

<sup>3</sup> Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б. ва Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – В.281.

<sup>4</sup> Дўсмаатов Х.Х. Аския матнининг лингвостилистикаси. Филол.фан.б. фалс. докт... дисс. – Фарғона, 2018. – 135 б.

<sup>5</sup> Чернявский М.Н. Комедия Аристофана и античные теории смеха // Аристофан. – М., 1956. – С. 81-108; Алексеев В.Л. Оружием политической сатиры. – М.: Мысль, 1979. – 244 с.; Бушмин А.С. М.Е.Салтыков-Щедрин. – Л.: Просвещение, 1970. – 240 с.; Луначарский А.В. О смехе // Советский фельетон. – М., 1959. – С. 439-442; Николаев Д.П. Смех – оружие сатиры. – М.: Искусство, 1962. – 223 с.; Эльсберг Я.Е. Вопросы теории сатиры. – М.: Сов. писатель, 1957. – 427 с.; Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – М.: Художественная литература, 1990. – 543 с.; Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1976. – 183 с.; Фрейденберг О.М. Поэтика сюжета и жанра. –

mohiyatini ochib berish, kulgining ijtimoiyligi va siyosiy vazifalari kulgi san'atning alohida ko'rinishi sifatida va umuman kulgini alohida estetik hodisa sifatida o'rganishgan. O'zbek filologik ilmida R.Muhamadiyev askiyaning folklor janri ekanligini asoslagan bo'lsa, X.X.Do'smatov askiyaning lisoniy masalalarini tadqiq etgan, xolos. Kulgiga asoslangan askiya janri matnlarining psixofolkloristik tadqiq etish, komik matnning tinglovchi ruhiyatiga ta'siri, askiyaning kulgi nazariyasiga mutanosibliigi kabi masalalarni tadqiq etish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Andijon davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq "Farg'ona vodiysi askiyalari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek folklorining mustaqil askiya janrining o'ziga xos xususiyatlari, janr tabiati, ularni muayyan guruhlariga ajratib tasniflash mezonlari, tasnifi, badiiy-estetik vazifalari hamda askiya matnlarining psixofolkloristik mohiyatini aniqlash, badiiyatini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Kulgi va o'zbek xalq askiyalarining turkiy va o'zbek folklorshunosligida o'rganilish tarixini yoritish;

askiyaning o'ziga xos xususiyatlari va hududiy-lokal belgilarini aniqlash;

so'z san'ati bilan bog'liq askiyalarning genezisi va poetik asoslarini oydinlashtirish;

askiyalarning tarixiy asoslari, o'ziga xos tabiati va obrazlar tizimini tadqiq etish;

askiyalarni folklor tabiatidan kelib chiqib ichki guruhlariga ajratib tasniflashning mukammal mezonlarini ishlab chiqish va tasnifini yaratish;

o'zbek askiya san'atining lokal xususiyatlari va jonli ijro holatining saqlab qolinish sabablarini ochib berish;

o'zbek askiya san'atining badiiy xususiyatlarini tadqiq etish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida saqlanayotgan manbalar hamda dissertantning 2015-2020-yillar davomida Farg'ona vodiysi viloyatlari bo'ylab o'tkazgan folklor

---

М.: Лабиринт, 1997. – 448 с.; Дмитриев А.В. Социология юмора. – М., 1996. – 214 с.; Лук А.Н. Юмор, остроумие, творчество. – М.: Искусство, 1977. – 184 с.; Вулис А.З. Метаморфозы комического. – М.: Искусство, 1976. – 126 с.; Рюмина М.Л. Эстетика смеха. Смех как виртуальная реальность. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 320 с.; Столович Л.Н. Философия. Эстетика. Смех. – СПб.: Тарту, 1999. – 384 с.; Карасев Л.В. Философия смеха. – М.: Рос. гуманитар. ун-т, 1996. – 224 с.; Разуваев В.В. Политический смех в современной России. – М.: Высшая школа экономики, 2002. – 264 с.; Санников В.З. Русский язык в зеркале языковой игры. – М.: Языки славянской культуры, 1999. – 544 с.; Демин В.П. Многоцветие смеха: Комическое в мордовской литературе. – Саранск: Мордовское книжное изд-во, 1998. – 141 с.; Кунильский А.Е. Смех в мире Достоевского. – Петрозаводск: Издательство Петрозаводского университета, 1994. – 85 с.; Спиридонова Л. Бессмертие смеха. – М.: Наследие, 1999. – 334 с.; Лихачев Д.С., Панченко А.М., Поньрко Н.В. Смех в Древней Руси. – Л.: Наука, 1984. 295 с.; Козинцев А.Г. Смех: истоки и функции. – СПб.: Наука, 2002. – 224 с.; Федь Н.М. Искусство комедии. – М.: Наука, 1978. – 217 с.; Сычев А.А. Смех как социокультурный феномен: Автореф. докт. философ. наук. – Саранск, 2004. – 36 с.; Мухтар Казымоглы. Генезис и поэтика смеха в азербайджанском фольклоре. – Баку: Элм ве техсил, 2017. – 360 стр.

ekspeditsiyalarida to'plangan "dala yozuvlari" belgilanadi. Shuningdek, nashr etilgan turli manbalarda ommalashtirilgan askiya namunalari hamda o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyoti materiallaridan ham foydalanildi.

**Tadqiqotning predmetini** askiya poetikasining tabiati, kulgi bilan mutanosibligi, obrazli tasvir va badihago'ylikning poetik tafakkurga ta'siri, so'z o'yini, so'zning ma'naviy maydoni va badiiy ifoda, askiyada obrazlilik kabi masalalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ushbu dissertatsiyani yozishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, ruhiy tahlil va badiiy-estetik tahlil usullaridan foydalaniladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

askiya janrining latifa va boshqa yondosh kulgi qo'zg'atuvchi og'zaki ijod janrlardan, sof fikr kurashi hamda bir necha ma'noni anglatuvchi so'zlarning qo'llanishiday farqli hamda yumorga asoslanganligi, hazil asosiga qurilishi, kulgining maydonga kelishiday mushtarak tomonlari aniqlanib, hayotiy-maishiy funksiyalari bilan aloqadorligi dalillangan;

askiyaning inson ruhiyatiga asab tizimi va ruhiy holatini ko'tarishdagi ta'siri, tinglovchilarning kayfiyatini ko'tarish – psixologik va kulgi hajv qilinadigan obyektning tasviri va u bilan bog'liq voqea yoki holatning tasviri orqali yumoristik janrlarning didaktik vazifalari, askiyalarning o'xshashlik yoki farqli badiiy xususiyatlari ochib berilgan;

o'zbek askiya san'atining milliy qadriyat sifatidagi va askiya badiiyatida badiiy tasvir vositalarining o'xshatishga asoslangan askiyalar, tadbir mohiyati shartlari asosida mavzu tanlashga asoslangan askiyalar hamda so'zsiz askiya shakli va uning dialogik yoki polilogik nutq ko'rinishlari asoslangan;

askiya syujetida hukmronlik qiluvchi freymlarni ikki ko'rinishdagi qobiqlar, ya'ni askiya mavzusini ochiq ifodalovchi hamda tag ma'noning mazmunan tizimlilikini ta'minlovchi qobiq mutanosibligi motiv va iboralar tizimlilikini talab etgani sabab komikostimulyatsion motivlar zanjiri shakllanib, bir butunlikda askiyaning maydonga kelishi ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

askiya janridagi asarlarning o'zbek folklorining latifa, lof kabi janrlaridan farqli tomonlari ochib berilgan;

askiyalarning ma'naviy hayotimiz va xalqimiz badiiy tafakkuri taraqqiyotida tutgan o'rni yoritilgan;

askiya matnlarida kulgining hosil bo'lishi, uning ong ostiga ta'siri masalalari faktik materiallar asosida isbotlangan;

askiya janridagi asarlarning o'rganilish tarixi oydinlashtirilib, bu janr namunalarini tasniflash mezonlari ishlab chiqilishi zarurligi asoslangan;

askiya matnlari badiiyatining o'ziga xosliklari, askiya ijrochilarining ijro uslubi va mahorat qirralari alohida tadqiq etish zarurati isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning tasniflash, tavsiflash, etnofolkloristik, psixofolkloristik

va qiyosiy tahlil usullari orqali asoslangani, ishonchli nazariy manbalardan foydalanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar, avvalo, askiya poetikasining tabiati hamda badiiyatini belgilashda asos bo'ladi, jumladan, askiya janri xususidagi mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi hamda to'ldiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati askiya o'zbek folklorshunosligining mustaqil janri sifatida universitetlar, pedagogika institutlari, filologiya, o'zbek tili va adabiyoti, San'at va madaniyat institutlarining xalq ijodiyoti ta'lim yo'nalishlari talabalariga ma'ruza, seminar mashg'ulotlari, maxsus kurslar o'tish, o'zbek folklori bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-metodik tavsiyalar, folklor asarlarining akademik va ommabop nashrlarini tayyorlashda samarali foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Askiya poetikasi" mavzusini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

askiya janrining tabiati, askiya janridagi asarlarning o'rganilishi, askiyalarda milliy ruh ifodasi, askiyalarning psixologik va didaktik vazifalari, askiyalarning badiiy xususiyatlari borasidagi xulosalardan Q.Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida 2018-2020-yillarda bajarilgan F-3-2016-0908565532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfavit va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022-yil 24-iyundagi 152-son ma'lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq folklorining o'zbek folklori bilan bog'liq uzvlari, kulgiga asoslangan janrlar tipologiyasini umumta'lim maktablari darsliklaridan o'rin olishi va maktabda xalq og'zaki poetik ijodiyotini o'rgatish metodlarini ishlab chiqishda askiya janrining o'rni beqiyos ekanligi aniqlangan.

askiya janrining ijro uslubi, ijro o'rni va badiiy tafakkur taraqqiyotida tutgan o'rni borasidagi ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi qoshidagi (Onajonim she'riyat) ijodiy to'garagi faoliyatida, adabiy kechalarda, ijodkor yoshlar bilan uchrashuvlarda foydalanildi. (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2022-yil 22-iyuldagi 01-03/940-sonli ma'lumotnomasi). Natijada yosh ijodkorlarning askiya san'ati badiiyati, so'zga chechanlik va hozirjavoblik, qofiyabozlik, omonim so'zlardan foydalanish san'atini o'zlashtirishlarida muhim ahamiyat kasb etishga erishildi.

o'zbek askiya san'atining milliy qadriyat sifatidagi ahamiyati va nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishga oid ilmiy qarashlaridan O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlarining ssenariysini yozishda foydalanilgan va muallif bilan suhbatlar uyushtirilgan. (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 23-iyundagi 04-36-993 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada xalqimiz badiiy tafakkurining ko'p

asrlik qadriyatlari tizimining yosh avlod ma'naviy kamolotidagi tutgan muhim o'рни va ahamiyati xususidagi yangi ma'lumotlar keng tomoshabinlar ommasiga yetkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro, 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish nashr etilgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 2 ta respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 126 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati asoslangan, tadqiqotning yangiligi va o'rganilishi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning ilmiy tadqiqot ishi rejaları bilan bog'liqligi bayon etilgan, maqsadi hamda vazifalari aniqlangan, manbalari, tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi sanab o'tilgan, ishning tarkibi qismlari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Askiya tabiati**" nomli birinchi bobining ilk fasli "**Askiya va kulgi nazariyasi mutanosibli**" masalasiga bag'ishlangan.

Askiya ikki yoki undan ortiq kishilarning xalq yig'inlarida muayyan mavzu bo'yicha badiiy so'z vositasida bellashuvini ifodalaydi. Bu janrning hazil mutoyibaga asoslanishi kulgi nazariyasiga mos keladi.

"**Paxta**" payrovida chigit va uni ekish bilan bog'liq voqealar tasvirlangan, biroq birinchi ijrochi nutqidagi **kassa** mavzuni boshlab beruvchi epilog vazifasini bajargan. Kassa asl ma'nosida pul saqlanadigan xona. Dehqonchilikda chigit ichini yorib niholning chiqishi tushuniladi. Chigit bo'g'zining ikkiga ajralib ichidan nishlagan niholning ko'rinish berishi shaklan tinglovchi dehqonlar ko'z o'ngida gavdalanadi va beixtiyor tagma'no anglatadi. Ayonki, tagma'no erotik ahamiyat kasb etadi. Askiyada so'zning tagma'nosi ifodalagan tasvir askiyachi va tinglovchilarning tasavvurida gavdalanadi. Ikkinchi askiyachining pushtani tortishi va ekib bo'lishini bildirib, "*oldi ekkan yerlarida meniki ko'rinib qoldi*" degan javobi birinchi askiyachining "*kassa*"sidan shakllangan kulgini davom etishini ta'minlash bilan birga yangi kulgiga asos bo'lgan. Demak, askiya musobaqasida ishtirokchilar *boshlovchi* va *davom* ettiruvchi kabi ikki toifaga ajralishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlovchi tagma'noni tanlaydi, keyingi askiyachilar to'g'ri ma'nodagi mavzu doirasida tagma'no bardavomligini ta'minlashi talab qilinadi. Keyingi ijrochilar tomonidan davom ettirilgan tagma'no o'ziga xos izchillik kasb etadi.

Bellashuv davomida keyingi ijrochilar plyonka, unib chiqqan niholning “*bir qarich bo‘lib, plyonkani ko‘tarib turgan*”ligi tasvirlari **tinglovchilar tasavvuridagi qochirqli xayoliy tasvirni** shakllantirib **komik va badiiy tizimni** maydonga kelishiga xizmat qiladi<sup>1</sup>. Askiyada ijrochilar tomonidan ko‘chma ma’no ifodalovchi ibora va so‘zlar komik va badiiy tizimda o‘ziga xos motivatsion jarayonni ado qiladi. Ijrochilar tomonidan tagma’noda hamma anglaydigan boshqa bir ma’nolarni ifodalaydigan tasavvurlarni uyg‘otuvchi metaforik birikmalarni topish, qo‘llash orqali tinglovchilar ongida komik holat shakllantirilishi vositasida kulgi maydonga keladi. Demak, qishloq xo‘jaligi mavzusidagi payrovda *chigit ekish, yer haydash, chigitning unib chiqishi, niholning bir qarich bo‘lib plyonkani ko‘tarib turishi, bir kun oqirib qo‘ysa keyin tashlashi* kabilar metaforik xarakter kasb etuvchi **komikostimulyatsion motivlardir**.

Stimulyator – latincha stimulo so‘zidan olingan bo‘lib, notinch qilaman, qo‘zg‘ayman, kengaytiraman degan ma’nolarni anglatadi. Odatda bu so‘z tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Askiyaning inson asab tizimi va ruhiy holatini ko‘tarishdagi o‘rnini inobatga olgan holda uni kulgi qo‘zg‘ovchilik vazifasi ayni shu vazifani ado etishga xizmat qiladigan motivlarni stimulant<sup>2</sup> sifatida tavsiflash imkonini beradi. Yaxshi kulgi va xush kayfiyat insonga ruhiy hamda biologik quvvat bag‘ishlaydi, ish unumdorligining oshishiga, sog‘lom ma’naviy muhitning yaratilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur faslda Askiyaning mohiyatini kulgi tashkil etishi kulgining ijtimoiy mohiyatga egaligining, askiyalarda ham tagma’no vositasida kulgini qo‘zg‘ovchi motivlar va ularning ma’noviy qobig‘i mavjudligining kuzatilishi tahlil qilingan. Yuqoridagi payrovda chigit ekish, yerga ishlov berish niholning ko‘zga tashlana boshlashi tasvirlarining tagma’nolari ham ochiq ma’no maydoni kabi ma’lum semantik qobiqda inkishof etiladi.

Xullas, o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotida betakror kulgi qo‘zg‘ashga asoslangan, so‘z san’atining ommaviy janrlaridan biri askiya morfologik jihatdan ochiq va yopiq ma’noviy qobiqlar doirasida komik holatni shakllantiruvchi motivlar asosiga qurilgan voqealarning matiqiy ketma-ketligiga tayanadi. Buni quyidagi formula vositasida ifodalashimiz mumkin:

$$mq \frac{tm}{yam} \rightarrow ksm = as$$

mavzu qobig‘i(*mq*): to‘g‘ri ma’nodagi mavzu(*tm*) va yashirin – tagma’nodagi mavzu (*yam*) qobig‘i doirasida komikostimulyatsion motiv (*ksm*) shakllanishi natijasida askiya syujeti (*as*) hosil bo‘ladi. Biz askiya syujetida hukmronlik qiluvchi freymlarni asosan ikki ko‘rinishga egaligini kuzatdik. 1. Askiya mavzusini ochiq ifodalovchi qobiq; 2. Tagma’noni mazmunan tizimlilikini ta’minlovchi qobiq. Har ikki qobiq mutanosibli motiv va iboralar tizimlilikini talab etadi. Natijada komikostimulyatsion motivlar zanjiri shakllanib, bir butunlikda askiyaning maydonga kelishiga asos bo‘ladi.

<sup>1</sup> Тупичекова М.П. Проблема комического в советской прозе 60-70-х годов: (В. Шукшин, В. Белов): Автореф.дисс. канд.филол.наук. – М., 1987. – С.8.

<sup>2</sup> Большой энциклопедический политехнический словарь//wordhelp.ru

Askiyada bir askiyachining nutqidagi mantiqiy davomiylikning keyingi askiyachi nutqida metoforik o'xshatishlar orqali kulgi qo'zg'ashi kulgi xamirturushi, ya'ni **stimulyator** vazifasini bajaradi.

Taniqli folklorshunos V.Propp kulgini xarakteriga ko'ra tasniflaydi<sup>1</sup>. Olim kulgining o'ziga xos estetik chegaralarini ham belgilaydi.

Askiya ijrosi davomida kulgining kinoyali, xushchaqchaq va sho'x kulgi ko'rinishlarini uchratamiz. Kulgi bevosita hazil, mutoyiba orqali amalga oshadi. Hazilni o'ziga xos mezonlar asosida farqlash mumkin: a) ijro etilishiga ko'ra, b) obyektga ko'ra, v) kayfiyat hosil qilishiga ko'ra, g) milliy mansubiyat yoki hududiy xarakterga xos hazillar, d) insonning tabiiy nuqsonlar asosidagi hazillar.

Tinglovchi va tomoshabinlarning kimning yoki nimaning ustidan kulishi hazil obyektini belgilab beradi. Askiyada hazil obyektini sifatida ijrochilar maydonga chiqadilar. Kayfiyat yaratuvchi hazil – askiya mazmunida ham bo'lishi mumkin bo'lgan hazil turi sanaladi. Yengil mutoyibaga asoslangan hazildan foydalanish askiyachilik amaliyotiga xos hodisadir.

Askiyada kulgi hajv qilinadigan obyektning tasviri va u bilan bog'liq voqea yoki holatning tasviri orqali maydonga keladi. Askiyaning mohiyati hazilga asoslanadi. Shuning uchun ijrochilar bir-birlariga hazil qilish orqali tinglovchilarda kulgi qo'zg'aydi. Kulgi ijrochilarning nutqida qo'llangan skriplar vositasida hosil bo'ladi. Skriplar askiyachi nutqida metoforik ma'noga ega bo'lgan so'zlar, birikmalarni o'z ichiga oladi. Bedana mavzusidagi payrovdagi **bedana** skrip vazifasini bajargan.

**Skrip** – askiya mavzusi markazida turgan predmet nomi. Skrip aslida bexosdan sirg'alish, ishqalanish natijasida chiqadigan tovush (masalan, moylanmagan temir g'ildirakning chiyillashi, eshikning g'iyqillashi kabilar). Komik janrlar nazariyasida skrip bexosdan yuqori tondagi kulgi qo'zg'ovchi komik elementni ifodalovchi atama sifatida qo'llaniladi. Skrip sifatida tanlangan predmetning odatda yashirin tagma'no anglatishi uchun o'xshash bo'lgan muayyan prototipi bo'lishi lozim. Prototip, skripga shaklan, harakati, xarakteri, muayyan vazifasi jihatidan o'xshash bo'lishi talab etiladi. Askiyada skripning sifatlari tavsifi izohlanadi. Izohlarda ba'zan mubolag'aga yo'l qo'yiladi. Masalan, bedana tavsifida: *“Mening bedanamni bir tepkisidan keyinla sizniki chiqqan yerini istab qolgan”* yoki askiyachilar orasida bedana maqtash jarayonida lof urish aralashadi. *“8-askiyachi: Meniki rosa kuchga to'lgandan keyin sayrashni to'qqiztaga olib boradi”*. *“9-askiyachi: To'likka suv purkab turasiz”*. *“10-askiyachi: Meniki rosa kuchga to'lganda o'ntaga olib boradi”*. Ko'rinadiki, so'zamollik, askiyachining mahorati. Muayyan skripni tanlagandan keyin uning tavsifida askiyachi gapdan qolmasligi, tavsiflanayotgan narsaning izohida mubolag'a kuchini oshirishga harakat qiladi. Bedananing yeng ichida turishi, prototipning ham shu kabi kiyim ichida turishi bilan o'xshash. Demak, skripning tanlanishida uning makoni, faoliyat o'rni ham prototipga mosligi talab etilar ekan.

---

<sup>1</sup> Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1976. – 183 с.

Xullas, askiya o‘zining tabiati: yumorga asoslanganligi hazil asosiga qurilishi, kulgining maydonga kelishiga sabab bo‘lishi, muayyan mavzu doirasida metaforik mazmundagi so‘zlar va iboralarning qo‘llanilishi, diologik nutq asosida shakllanishi, binar mohiyat kasb etishi bilan hazil nazariyasiga mutanosib o‘zbek folklorining mustaqil janri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobning **“Askiya va uning janr xususiyatlari”** nomli ikkinchi faslida askiyaning kulgiga asoslangan boshqa janrlardan farqli tomonlari uning ijro o‘rni va uslubiga ko‘ra farqlari turkiy xalqlar folklori materiallari va folklorshunoslarining nazariy qarashlariga tayangan holda ochib berilgan. Xullas, askiya tur mansubiyati nuqtayi nazaridan dramatik turga xos janr. Askiya xalq dramasi o‘ziga xos ko‘rinishlarini ifodalaydigan, sahna namoyishiga mo‘ljallanganligi bilan xarakterlidir. Askiyada ishtirokchilar sahna personajlari vazifasini bajaradi va ularning diologik xarakterdagi nutqi tinglovchilar tomonidan baholanadi. Masalaning ayni shu jihati mazkur janrning tur mansubiyatini belgilab beradi.

Askiya folklor janri sifatida ikki va undan ortiq kishilar tomonidan taraf-taraf bo‘lib ijro qilinadigan bellashuvga asoslangan, mohiyatida hazil mutoyiba yetakchilik qiladigan diologik nutqdir. U og‘zaki tarzda og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga o‘tib keladigan jamoa tomonidan yaratilgan noyob og‘zaki adabiy asar bo‘lib, xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti namunalarining tabiatiga xos bo‘lgan badiiy, estetik, didaktik vazifalar bilan birga psixologik vazifani ham bajaradigan og‘zaki so‘z san’ati namunasi.

Dissertatsiyaning **“Askiyaning o‘rganilishi va tasnifi”** nomli ikkinchi bobining birinchi fasli **“Kulgiga asoslangan folklor janrlari va askiyaning o‘rganilishi”**ga bag‘ishlangan. Og‘zaki ijod namunalarida kulgi bilan bog‘liq asarlarni o‘rganish, ularning badiiy - estetik imkoniyatlari borasida mulohazalar bildirish asosan o‘tgan asrning boshlarida olimlarning e‘tibor markaziga tushdi.

1916-yilda tatar olimi G.Ibrahimov **“Adabiyot darslari”** nomli risolasida *mazak-mazax* janrining o‘ziga xosligi borasida munosabatlarini bildirgan<sup>1</sup>. 1960-yillarda G.Bashirovning **“To‘qson to‘qqiz mazax”** nomli to‘plamida **“Mazax qanday paydo bo‘lgan”**<sup>2</sup> nomli maqolasida mazaxning janriy belgilari, uning paydo bo‘lishi va g‘oyaviy-estetik qimmatini borasida muhim fikrlar bildirildi. Shuningdek, keyinroq uning **“Ming bir mazax”** nomli hazillar to‘plami ham e‘lon qilindi<sup>3</sup>. 1929-yilda G.Raxim va M.Vasilyevlar tomonidan **“Folklor va xalq adabiyotini to‘plash bo‘yicha qo‘llanma”**sida hazil birinchi marta folklorning mustaqil janri sifatida baholandi. Kulgili xarakterdagi qisqa hikoyalarni latifa deb atadilar<sup>4</sup>. Yaqut folklorini o‘rgangan S.V.Yastremskiyning qayd etishicha, qadimgi yaqutlar dafn marosimida ham kulgidan foydalanishgan. Ular kulgini ilohiy tushuncha, ruhlar

---

<sup>1</sup> Ибраһимов Г. Әдәбият дәрәсләре. – Казан, 1916. – 64 б.

<sup>2</sup> Бәширов Г. Туксан тугыз мазәк. – Казан: Татар. кит. нәшр., 1960. – 74 с.

<sup>3</sup> Бәширов Г. Мең дәр бер мазәк. – Казан: Татар. кит. нәшр., 1963. – 380 с.

<sup>4</sup> Васильев М., Рахим Г. Руководстве по собиранию фольклора и народной литературы. – Казан, 1929. – 68 с.

bilan bog‘lanishning bir ko‘rinishi deb qaragan<sup>1</sup>. XX asrning oxirlarida F.Xatipov va A.Yaxinlar tomonidan hazilga asoslangan mazax janri nazariy tadqiq etildi. F.Xatipov “Epik janrlar” nomli monografiyasida “Mazax janri xususida” degan bo‘lim ajratdi. Shuningdek, ishning “Novella. Rasskaz” bobida novella va xalq hazilining janrlararo munosabatlarini tekshirgan<sup>2</sup>. A.Yaxin o‘zining “Tatar folklori tizimi” nomli monografiyasini latifalar tadqiqiga bag‘ishladi va u shu janrga doir og‘zaki asarlar tadqiqiga bag‘ishlangan bir necha maqolalar e‘lon qildi<sup>3</sup>.

Etnografik yo‘nalishda askiya o‘zbek xalq teatrining ajralmas bir qismi sifatida A.L.Troiskaya tomonidan tadqiq etilgan<sup>4</sup>. Olima o‘zining o‘zbeklar haqidagi kuzatishlari va dala yozuvlarida askiyaning xalq orasida qadimdan qiziqchilar tomondan ijro etilishi, uning ba‘zi turlari borasida o‘z mulohazalarini bayon qiladi<sup>5</sup>. Kulgining ijtimoiyligi va hayotimizdagi mohiyati borasida XX asr fanida turli tadqiqotlar yaratildi. Xususan, kulgi nazariyasi bo‘yicha ikki fundamental an‘ana maydonga keldi. Birinchisi, hukmron mafkura asosida K.Marks va F.Engels ta‘limotiga tayangan holda kulgining ijtimoiy muhitni belgilashdagi satirik tanqidiy qudratini baholashni o‘z ichiga oladi. Mazkur fundamental an‘anaga V.A.Alekseyev, A.S.Bushmin, A.V.Lunacharskiy, D.P.Nikolayev, Ya.Ye.Elsberg, R.Muxammadev kabi olimlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. M.M.Baxtin, V.Ya.Propp, O.M.Freydenberg kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida kulguning asoslari va badiiy tafakkurga ta‘siri tadqiq etildi<sup>6</sup>. Ikkinchisi, kulgi muammolari va kulgi madaniyati yo‘nalishini tadqiq evchilar: A.S.Axiyezer, Yu.M.Boroday, P.Vayl, A.Genis, A.Ya.Gurevich, S.S.Gusev, G.L.Tulchinskiy va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida turli aspektlarda o‘rganildi<sup>7</sup>.

R.Muxammadiyevning nomzodlik dissertatsiyasi garchi hukmron mafkura ta‘sirida bo‘lsa-da, o‘zbek folklorida askiyaning mustaqil janr ekanligini asoslashga qaratilgan birinchi tadqiqot edi. 2018-yilda Farg‘ona davlat universitetida X.X.Do‘smatov “Askiya matnining lingvostilistikasi” mavzusida

---

<sup>1</sup> Ястремский С. В. Образцы народной литературы якутов. – Л.: Изд-во Академии Наук СССР, 1929. – С. 34.

<sup>2</sup> Хатипов Ф. Эпик жанрлар. – Казан: Татар. кит. нәшр, 1973. – 49 б.

<sup>3</sup> Яхин А. Система татарского фольклора. – Казан: Тат. кит. Нәшр, 1984. – 120 с.

<sup>4</sup> Троицкая А.Л. Народный театр в Узбекистане // Восточный сборник. Вып. 4. – Л., 1990. – С. 144-151.

<sup>5</sup> Мухаммадиев Р. Аския (Ўзбек халқ ижодиётининг жанри): Филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 1961. – Б. 7.

<sup>6</sup> Алексеев В.Л. Оружием политической сатиры. – М.: Мысль, 1979. – 244 с.; Бушмин А.С. М.Е.Салтыков-Щедрин. – Л.: Просвещение, 1970. – 240 с.; Луначарский А.В. О смехе // Советский фельетон. – М., 1959. – С. 439-442.; Николаев Д.П. Смех – оружие сатиры. – М.: Искусство, 1962. – 223 с.; Эльсберг Я.Е. Вопросы теории сатиры. – М.: Сов. писатель, 1957. – 427 с.; Мухаммадиев Р. Аския (Ўзбек халқ ижодиётининг жанри): Филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 1961. – 233 б.; Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – М.: Художественная литература, 1990. – 543 с.; Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1976. – 183 с.; Фрейденберг О.М. Поэтика сюжета и жанра. – М.: Лабиринт, 1997. – 448 с.

<sup>7</sup> Ахиезер А.С. Россия: критика исторического опыта. – М.: ФО АН СССР, 1991. – 470 с.; Бородай Ю.М. Эротика-смерть-табу: трагедия человеческого сознания. – М.: Гнозис, Русское феноменологическое общество, 1996. – 416 с.; Вайль П., Генис А. 60-е: мир советского человека. – М.: Новое литературное обозрение, 2001. – 368 с.; Гуревич А.Я. Проблемы средневековой народной культуры. – М.: Искусство, 1981. – 359 с.; Гусев С.С., Тульчинский Г.Л. Проблема понимания в философии. – М.: Политиздат, 1985. – 192 с.; Терц А. Путешествие на Черную речку. – М.: Захаров, 1999. – 478 с.

filologiya bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qildi. Tadqiqotchi garchi lingvistik rakursda kuzatishlar olib borgan bo'lsa-da, ishning birinchi bobining "Askiyaning shakliy-ifodaviy turlari" nomli to'rtinchi faslida askiyaning turlari borasida zarur ma'lumotlarni keltiradi. Tadqiqotning mazkur faslida X.X.Do'smatov askiya shakllari borasida ma'lumotlarni keltirib, ulardan namunalar bayon qiladi. Shuningdek, ayollar askiyasi borasida ma'lumot beradi<sup>1</sup>.

Navro'z bayrami sayilgohlarda askiyabozlar, muqallidlar, masxarabozlarning chiqish qilishlari an'anasi o'zbek xalqida ham azaldan mavjudligi, xalqning bayramona kayfiyatini ko'ratishda folklor san'atining o'zni beqiyosligini taniqli o'zbek folklorshunosi professor M.Jo'rayev ham qayd etadi<sup>2</sup>.

Turkman olimi prof. B.A.Karriyevning qayd etishicha, turkman folklorida "yomak" (draznilok-masxaralamoq), "shorta soz" (anekdot-latifa) kabi janrlar mavjud bo'lib, bular xalqning kulgi va yumorga asoslangan qarashlarini badiiy estetik ifodalaganligi bilan og'zaki adabiy asarlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>3</sup>.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida A.N.Luk zukkolik va hazil bilan bog'liq folklor janrlarini turli aspektlarda o'rganishga keng e'tibor qaratdi<sup>4</sup>. M.Churmavevaning tadqiqotida, zukkolik dastlab hozirjavoblik ko'rinishida maydonga kelib, jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridan to XVIII asrgacha xalq orasida keng tarqalgan va xalq og'zaki ijodida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'lgani aytiladi<sup>5</sup>. Zukkolik, hozirjavoblik hazilning ajralmas tarkibiy qismidir. Askiyada ham zukkolik va hozirjavoblik ijrochining mahoratini belgilab beruvchi muhim omillardan hisoblanadi.

J.Meredithning fikricha, arab Sharqi xalqlarining eng noyob mo'jizalaridan biri hazil bo'lib, xalq o'z orzu-istaklari va niyatlarini Xo'ja Nasriddin obrazi orqali ifodalaydi<sup>6</sup>. Askiyada so'zning tagma'nosida tanqid ham, kinoya ham, o'xshatish ham bo'y ko'rsatadi. Askiyada kulgi qo'zg'ash uchun qo'llanilgan so'zning dastlabki ma'nosi to'g'ri ma'no anglatgan holda uning yashirin ma'nosi insonning ong osti hislarini uyg'otadi. Taniqli folklorshunos J.Eshonqul o'zining folklor asarlarining ruhiy tahlil metodiga bag'ishlangan bir tadqiqotida to'g'ri takidlaganidek, "ong osti hislari insonni hamisha poeziya bilan, tabiat bilan yaqinlashtirib turadi, unda ijodiy hissiyot tug'diradi"<sup>7</sup>. Mana shu ijodiy hissiyot tinglovchilarning tasavvurida yashirin komik kartinani hosil qilganligi sababli kulgi hosil bo'ladi. Askiyaning asl mohiyatini anglash uchun uning ijtimoiy, ruhiy,

---

<sup>1</sup> Дўсматов Х.Х. Аския матнининг лингвостилистикаси: Филол.фан.б. фалс. докт... дисс. – Фарғона, 2018. – В. 35-41.

<sup>2</sup> Жўраев М. Наврўз байрами. – Тошкент: Фан, 2009. – В.107.

<sup>3</sup> Карриев Б.А. Эпосы, легенды и сказания - Туркменский юмор. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1962. – 128 с.

<sup>4</sup> Лук А. О памяти, эмоциях, чувствах; юморе, остроумии, творчестве; об уме и глупости; о любви. – Франкфурт-на-Майне, 2017. – 886 с.

<sup>5</sup> Чурмаева Н.В. Почему остроумный? // «Русская речь», 1969. – №1. – С.86.

<sup>6</sup> Meredith G. An essay on comedy. – London, 1898. – P. 36.

<sup>7</sup> Эшонкул Ж. Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2019.– Б. 139.

badiiy-estetik vazifalarini tushunishga harakat qilishimiz, buning uchun psixoanalitik tahlil qila olish malakasiga ega bo'lishimiz zarur.

Xullas, askiya jahon va turkiy xalqlar filologiya fanida alohida mustaqil tadqiq etilmagan, faqat XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab og'zaki so'z san'ati namunasi sifatida o'rganila boshlangan. Bu borada o'zbek folklorshunosi R.Muxammadiyevning nomzodlik dissertatsiyasi alohida e'tiborga molikdir. XXI asrga kelib askiyaning lisoniy jihatlari o'zbek tilshunosi X.X.Do'smatov tomonidan tadqiq etilgan xolos.

Jahon fanida semantik va funksional jihatdan askiya bilan mushtarak bo'lgan janrlar ham asosan o'tkan asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy jamoatchilikni qiziqтира boshladi. Rus va G'arb olimlari kulgiga asoslangan folklor janrlarining ijtimoiy, psixologik va lingvistik jihatdan o'rganish ishlarini amalga oshirdilar. Askiya va u bilan vazifaviy hamda mantiqiy mushtarak bo'lgan satirik va yumoristik folklor janrlari pedagogik nuqtayi nazardan na o'zbek folklorida, na jahonning boshqa biror xalqi olimlari tomonidan o'rganilgan emas. Holbuki, askiya va boshqa yumoristik janrlarning didaktik xususiyatlarini ham ilmiy tadqiq etish maqsadga muvofiq keladi. O'zbek folklorida mustaqil janr bo'lgan askiya matnlarini psixoanalitik tahlil qilish masalasi ham folklorshunoslikda hozirga qadar amalga oshirilmagan.

Bobning ikkinchi fasli "**Askiyaning tasnif qilinishi va uning mezonlari**"ga bag'ishlandi. O'zbek folklorida askiya janriga mansub asarlarni ichki tiplarga ajratish bo'yicha amaliyot mavjud. Turli tadqiqotchilar askiya janridagi asarlarni turlicha nomlar ostida, turlicha ichki tiplarga ajratib keladilar. Folklorshunoslik fanining tadqiqotchilari folklor materiallarini muayyan guruhlariga ajratishning turli xil mezonlarini taklif etadi. Taniqli rus folklorshunosi V.Ya.Propp folklorning haqiqatga nisbatan uchta turi mavjud deb hisoblaydi:

1. Folklor, har qanday san'at kabi, haqiqatga qaytadi. Hatto folklorning eng fantastik obrazlari ham haqiqat nuqtayi nazaridan o'z asosiga ega. Bu esa, folklorning butun sohasi uchun hech qanday istisnosiz amal qiladi. 2. Xalq ijodiyoti ijodkorlari va ijrochilarining irodasidan tashqari, u real hayotni aks ettiradi. Bu tafakkurning shakl va mazmuni davr va janrga qarab o'zgarib boradi, ular folklor poetikasi qonunlariga bo'ysunadi. 3. Milliy rassom voqelikni tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Xalq ijodidagi bunday intilish mehnatkashlarning tarixiy qo'shig'i va folklorini xarakterlaydi<sup>1</sup>.

Bizningcha ham, folklor asarlarining janri borasida mulohaza yuritishimizda o'rganilayotgan janrning o'ziga xosligi nimalarda ekanligi, unda voqelik qanday aks etishi, bu voqelik qanday vositalar yordamida tasvirlanishi, unga tinglovchining munosabati qanday va bu munosabat qanday ifodalanadi, janrning qayerda kim tomonidan ijro qilinishi, ijrochidan professional tayyorgarlik talab etishi masalalarini ham inobatga olish lozim.

---

<sup>1</sup> Пропп В.Я. Фольклор и действительность. – М.: Наука, 1976. – 327 с.

